



OB'YEKT BARQARORLIGINI OSHIRISH

X.G.Azimov

(*FVV Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti katta o'qituvchisi*)

Maqolada: *iqtisodiyot ob'yekti ishlashi barqarorligiga salbiy ta'siri, sanoat ob'yektlaridan noto'g'ri foydalanish masalalari yoritilib, ushbu omillarning inson salomatligiga salbiy ta'sirlarning oldini olish chora-tadbirlari va ushbu tadbirlardan kutilayotgan natijalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *ishlab chiqarish imoratlari, kommunal va energetika tarmoqlari, dastgoh uskunalar, texnologik kommunikatsiyalar.*

Iqtisodiyot ob'yekti ishlashi barqarorligi deganda korxonaning rejalashtirilgan hajmda va belgilangan nomlanishdagi mahsulot chiqarishga qodirligi, shuningdek, izdan chiqqan ishlab chiqarishni qisqa muddatda qayta tiklash mumkinligi tushuniladi.

Bevosita moddiy boyliklar ishlab chiqarmaydigan ob'yektlar (energetika, transport, aloqa va hokazo) uchun ular ishlashining barqarorligi deganda favqulodda vaziyat holati sharoitida o'z vazifalarini bajarishga qodirliklari tushuniladi.


Murakkab holatlar yuzaga kelishi ehtimolini hisobga olib, har bir korxonada uning ishlashi barqarorligini oshiradigan tadbirlar majmui (ilmiy-tadqiqot, texnologik va muhandislik-texnik chora-tadbirlar boshqa) amalga oshirilishi kerak.

Iqtisodiyot ob'yektlarining barqaror ishlashini ta'minlash yuzasidan tadbirlar o'tkazishga ob'yektlar va ishlab chiqarish birlashmalari ishlashi barqarorligini oshirish borasida har bir holat davrida barqaror ishlashni ta'minlash tadbirlarini amalga oshirish ham kiradi.

Tashkiliy tadbirlarga ishlab chiqarish xodimlarini favqulodda vaziyatlar sharoitida muhofaza qilish (jamoaviy va shaxsiy muhofaza vositalari, jumladan sanoat, tibbiyot vositalari bilan ta'minlash orqali hayotiy faoliyatni ta'minlash, ya'ni oziq-ovqat, suv manbalari, kuchlar, moddiy boyliklarni muhofaza qilish) hujjatlarini ishlab chiqishdan iborat.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish yuzasidan Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, vazirliklar va idoralarning falokat va halokatlar oldini olishga hamda tabiiy ofatlardan iqtisodiyotga yetadigan moddiy zararni kamaytirishga, tarmoqlar va juda muhim ob'yektlar ishlashi barqarorligini oshirishga yo'naltirilgan muhandislik-texnikaviy va boshqa tadbirlarni ishlab chiqish, rejalashtirish haqidagi takliflarini ko'rib chiqish Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda quyidagilar muhimligini unutmaslik:

Respublika hududida qurilishi rejalashtirilgan ob'yektlarni sanoat va ekologik xavfsizlik talablarini hisobga olib joylashtirish ishlarini muvofiqlashtirishga e'tibor qaratish;





Vazirliklar, idoralar va mahalliy hokimiyat organlari aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga ajratilgan mablag'larni qanday uzlashtirayotganini nazorat qilish;

Respublika iqtisodiyoti va hududi uchun xarakterli antropogen va tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishini oldindan taxminlash muammolari yuzasidan, bunday vaziyatlarning oldini olish, aholini muhofaza qilish va iqtisodiyot ishlashi barqarorligini oshirish tadbirlari samaradorligi yuzasidan ilmiy tekshirish institutlarida tadqiqotlar o'tkazilishini tashkil etish;

Respublika hududida zilzilalarni oldindan taxminlash, seysmik rayonlashtirish ilmiy asoslari va usullarini ishlab chiqish. FVDT boshqaruv organlari va aholini zilzilalar haqida ma'lumot bilan ta'minlash kerak.

Texnologik tadbirlar, bu – har qaysi korxonadagi ishlab chiqarish xususiyatini, texnologik jarayonni hisobga olib ishlab chiqiladigan tadbirlar. Muxandislik-texnikaviy tadbirlar, bu — amalga oshirilishiga katta mablag' sarflanishini talab etiladigan muhim tadbirlar.

Iqtisodiyot ob'yekglari va ishlab chiqarish birlashmalari ishlashi barqarorligi yuzasidan tashkiliy, ilmiy-tadqiqot, texnologik va muxandislik-texnikaviy tadbirlarni vazirliklar, ishlab chiqarish birlashmalari va ob'yektlari ishlab chiqadi hamda ular asosan oldindan bajarish rejallashtirilgan tegishli fuqaro muhofazasi xujjalarda, rejalarda nazarda tutiladi.

Bu tadbirlar bajarilishi uchun har bir yirik iqtisodiyot ob'yektida va ishlab chiqarish birlashmalarida uning ishlashi barqarorligiga baho berilishi kerak bo'lib, bunga quyidagilar kiradi:

birinchidan, ob'yekt o'zining barqarorligiga baho berishi;

ikkinchidan, ob'yekt ishlashining barqarorligiga baho berish.

Ob'yekt o'zining barqarorligiga, ya'ni uning muhandislik-texnik majmuiga baho berishi ob'yektning favqulodda vaziyat tufayli paydo bo'ladigan ikkilamchi omillarga qarshi tura olishga qodirligini aniqlashdan iborat.

Muxandislik-texnik majmuiga ishlab chiqarish imoratlari, kommunal va energetika tarmoqlari, dastgoh uskunalar, texnologik kommunikatsiyalar va boshqa inshootlar kiradi.

Ob'yekt ishlashi barqarorligiga baho berish ancha kengroq tushunchadir. Ishlash barqarorligiga baho berish deganda korxonaning kundalik tartibdagi va favqulodda vaziyatlardagi ishlab chiqarish jarayoni o'tadigan sharoitni yoqlama o'rganishni tushunish kerak. Bu — katta va murakkab vazifa. Unga quyidagilar kiradi:

Ob'yektdagi ishlab chiqarish jarayonining barqarorligiga baho berish.

Shikast ikkilamchi omillarining xususiyatini va ta'sir darajasini aniqlash.

Ob'yektning va ishlab chiqarish ob'yektlarining ta'minot tizimi, ishlab chiqarish aloqalari ishonchliliga baho berish.

4. Zaxiralar, ta'minot musta'dil (avtonom) manbalari mavjudligini hisobga olish hamda mahsulot chiqarishni ta'minlab beradigan boshqa tarkibiy qismlarni o'rganish.





5. Boshqaruv tizimi ishonchliliga baho berish, ob'yektlar va tarmoqlar ishlashi barqarorligini oshirish fuqaro muhofazasining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, uni fuqaro muhofazasi hududiy organlari va Iqtisodiyot ob'yektlari boshqaruvi bo'g'lnlari birgalikda mahalliy boshqaruv organlari bilan yaqindan hamkorlikda hal qiladi.

Ob'yekt ishlashi barqarorligini oshirish tadbirlariga bir qancha talablar qo'yiladi. Ulardan eng asosiysi ob'yektning ishlab chiqarish faoliyati va rivojlanishi umumiy majmuida oldindan ishlab chiqish va amalga oshirib qo'yishdan iborat bo'lib, ular iqtisodiyot ob'yektlarining joriy va istiqbol rejalarida nazarda tutiladi. Barqarorlikni oshirish tadbirlari iqtisodiyot ob'yektning hamma muhim ob'yektlarida ishlab chiqiladi va o'tkaziladi.

Iqtisodiyot ob'yektlari va tarmoqlari ishining barqarorligini oshirish muammolari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni tashkil qilish. Iqtisodiyot ob'yektlari ishi barqarorligini oshirish bo'yicha tadbirlar faqat iqtisodiyot tarmoqlari butunicha faoliyat ko'rsatgandagi maxsus tadqiqotlar asosidagina to'la amalga oshirilishi mumkin.

Birinchidan, bu iqtisodiyot ob'yektlari ishi barqarorligi bo'yicha maxsus tadqiqotlardir. Bu tadqiqotlar ob'yektlar ishi mustahkamligini oshirish masalalarining butun kompleksini qamrab oladi. Maxsus tadqiqotlar davomida quyidagilar tadqiq qilinadi:

favqulodda vaziyatlarning muhandislik-texnik kompleksga ta'siri;
ishlab chiqarish xodimlarining muhofazasi;
ishlab chiqarish, texnologik va laboratoriya jihozlarining muhofazasi;
ob'yektni elektr energiyasi, suv, gaz, bug' bilan ta'minlash;
iste'molchilar bilan ishlab chiqarish aloqalari, kooperatsiya bo'yicha aloqalar, xo'jaliklararo aloqalar;

xom ashyo, materiallar, tayyor mahsulot muhofazasi;
zararlanishning ikkilamchi omillarini kamaytirish, mustasno qilish bo'yicha tadbirlar;

vazifalarni hal qilish uchun favqulodda vaziyatlarda ishlab chiqarishni boshqarish;


izdan chiqqan ishlab chiqarishni tiklash bo'yicha tadbirlar (yuqorida sanab o'tilgan muammolarni mohiyatan qisqacha ochib berish).

Tadqiqot guruuhlarining vazifalari va tarkibi tadqiqot rahbari - ob'yekt rahbari (yoki bosh muhandisi) tomonidan aniqlanadi.

Tadqiqot shartli ravishda bir necha bosqichlarga bo'linadi:

Birinchi bosqichda favqulodda vaziyatlarda ob'yekt ishining barqarorligini oshirish masalalarida erishilgan darajaga baho beriladi. Me'yoriy talablarga muvofiq barqarorlikni oshirish bo'yicha hukumat ko'rsatmalari, rejali topshiriqlar va rejalarining o'zi bajarilayotganligi darajasi tasvirlanadi.

Ikkinchi bosqichda ob'yekt barcha elementlarining zararlovchi omillar ta'siriga chidamliligi baholanadi. Bu yanada murakkab bosqich. U o'tkazilayotgan tadqiqot uchun vaqtning katta qismini egallaydi.





Tadqiqotning ikkinchi bosqichini o'tkazishda quyidagi vazifalar ishlab chiqilishi lozim: ob'yekt barcha elementlarining favqulodda vaziyatlardagi zararlovchi omillardan zaifligini baholash; ikkilamchi omillar ta'sirida ehtimol tutilgan shikastlanish va zararlanish darajasi va xarakterini aniqlash; bunday sharoitda tahlil natijalari bo'yicha iqtisodiyot ob'yekti holatini tahlil etish; mol yetkazib beruvchilar va iste'molchilar bilan boshqarma, ta'minot, ishlab chiqarish va kooperativ aloqalarning mustahkamligi tizimini baholash.

Uchinchi bosqichda bajarilishi rejalshtirilgan hajmdagi nomenklaturadagi mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan tadbirlarning belgilab olinadi.

Har bir mutaxassislar guruhi o'z faoliyati doirasida zarur hisoblarni o'tkazadi.

Shundan so'ng barcha tadqiqot guruhlarining baholashlari natijalari tadqiqot rahbari guruhida umumlashadi va bu ob'yekt ishi barqarorligining umumiyl holatini baholashga imkon beradi.

Masalan: bino va inshootlar mustahkamligini tadqiq etish guruhining ishi asosiy va yordamchi ishlab chiqarish bino va inshootlarning zaif joylarini belgilashdan, ishchilar, xizmatchilar va ularning oila a'zolarini muhofaza binolari bilan ta'minlash va favqulodda vaziyatlardan so'ng ularning holatini baholashdan boshlanadi.

Bino va inshootlarning tabiiy ofatlar ta'siridan zaifligini baholash uchun hisobot quyidagi tartibda o'tkaziladi: asosiy va yordamchi ishlab chiqarishning asosiy bino va inshootlari nomi aniqlanadi; har bir bino, inshoot va sexlarga berilgan loyiha (qurilish) hujjatlari o'r ganiladi; ko'rيلayotgan bino va inshootlarga zilzila yoki zamонавиy zarar yetkazish vositalari ta'siri o'r ganiladi.

Tadqiqot rahbari guruhi. Guruh barcha tadqiqot guruhlari ishini tashkillashtiradi va muvofiqlashtiradi. U barcha tadqiqot guruhlarining ob'yektlari barqarorligini baholash natijalarini umumlashtiradi va quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1.Ishchilar, xizmatchilar va ularning oila a'zolari muhofazasi bo'yicha barcha bor imkoniyatlarni o'r ganadi va baholaydi.

2.Ob'yekt zaifligi grafigini ishlab chiqadi, tabiiy ofatlar, avariya va halokatlar ta'sirida ishlab chiqarish fondlarining yo'qolishi majburiyatini xarakterlaydi. Ishlab chiqarish fondlarining ishlab chiqarish quvvatlaridagi talafot nisbiy birliklar yoki boshlang'ich narxdan foizlarda aks etadi. Bu ehtimol tutilgan zarar grafigiga o'xshashdir.

3.Bo'lishi mumkin bo'lgan zarardan kelib chiqib mahsulotlarning belgilangan turlarini chiqarish bo'yicha korxonaning ishlab chiqarish quvvati pasayishi grafigini ishlab chiqadi.

4.Tiklash ishlari hajmini, ularni bajarish uchun zarur kuch va vositalarni belgilaydi.

Tadqiqot natijalari bo'yicha ob'yekt ishi mustahkamligini oshirish tadbirlari rejasiga va tadqiqot natijalari to'g'risida ma'lumot tayyorlanadi. Ma'lumotda quyidagi masalalar yoritiladi: tadqiqot o'tkazishning mavzusi, maqsadi, vazifalari va xususiyatlari; ob'yektlar ishi barqarorligini baholash xulosalari; ob'yektlar ishi barqarorligini oshirish bo'yicha tadbirlar; ob'yekt kuchlari bilan o'tadigan tadbirlarni amalga oshirish





muddatlari; vazirliklar yordamini talab qiladigan tadbirlar; rejalashtirilgan tadbirlarni o'tkazish uchun zarur moliyaviy va moddiy-texnik vositalar; ilmiy-konstrukturlik va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida tadqiqot jarayonida hal qilinmagan va ishlashni talab qiladigan masalalar. Hisobot dokladiga tadqiqot materiallari bo'yicha hisobot kartochkalari ilova qilinadi.

Ob'yekt ishining barqarorligini oshirish bo'yicha tadbirlar rejasi tadqiqot natijalarini umumlashtiruvchi asosiy hujjatlar hisoblanadi. Ob'yekt ishining barqarorligini bo'yicha tadbirlar rejasi va tadqiqot natijalari bo'yicha hisobot ma'lumoti texnik kengashda muhokama kilinadi. Shundan so'ng bu hujjatlar ob'yekt rahbari tomonidan imzolanib, talab qilingan resurslar miqdori smetasi bilan birga tasdiqlash uchun tegishli vazirlikka jo'natiladi.

Iqtisodiyot ob'yektlari ishlashi barqarorligini oshirishning mohiyati ehtimol bo'lgan talafotlarni imkon darajada kamaytirish, qutqaruв va boshqa shoshilinch ishlar o'tkazish uchun sharoit yaratish hamda Respublika Iqtisodiyot ob'yektlari rejalarida belgilab qo'yilgan mahsulot turlari chiqarilishini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy, ilmiy-tadqiqot, texnologik, muxandislik-texnikaviy tadbirlar majmuini ishlab chiqish va oldindan amalga oshirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi «Aholini va xududlarni tabiiy xamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuni.

2.O'zbekiston Respublikasi «Xavfli ishlab chiqarish ob'yektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida» gi qonuni

3.O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 515-sonli qarori.

4.O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 455-sonli qarori.

5.O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 754-sonli qarori.

6.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari./I.A.Karimov.-T.:O'zbekiston, 1997. -326 b.

7.Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va chorralari./I.A.Karimov.-T.:O'zbekiston, 2009. -56 b.

8.[www. mchs.gov.uz.](http://www.mchs.gov.uz)

